HO`QANDI LATIF OBIDALARIGA BIR NAZAR

M.Qodirov*

Annotatsiya: ushbu maqolada siz Qo`qon shahrida joylashgan obidalar haqida, ularning qurilish vaqti, kim tomonidan qurilganligi, tashqi va ichki bezak ishlari, shuningdek bugungi kunda ularga qanday e'tibor qaratilayotganligi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so`zlar:** V.I.Masal'skiy, Norbo`tabiy madrasasi, Dahmai Shohon, Xo`ja Iskandar, Muhammadiso Najjor, Hazrati Sohibzoda, "Anjum at-tavorix", Madalixon, nasta'liq.

Farg`ona vodiysi turli davrlar davomida alohida davlat uyushmalari tarkibida bo`lganligiga tarix yaqqol guvohlik beradi. Shulardanbiri sifatida 1709-1876-yillarda Farg`ona vodiysida hukmronlik qilgan Qo`qon xonligi hisoblanadi. Ushbu hududda tarixning turli davrlariga oid ko`plab tarixiy obidalar mavjuddir. Ushbu obidalar haqida O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Farg`ona viloyatining o`ziga xos yana bir jihati – bu yerda turli davrlarda barpo etilgan Madrasai Mir, Dahmai Shohon, Modarixon dahmasi, Xudoyorxon o`rdasi kabi ko`plab tarixiy obidalar, Poshshopirim, Bibi Ubayda, Sohibi Hidoya kabi muqaddas joylar xalqimizning yuksak me'morchilik san'ati, ajdodlarimizning yaratuvchilik salohiyatidan, piri komilligidan dalolat beradi" Qo`qonga oid asosiy obidalar asosan, Qo`qon xonligi ya'ni minglar sulolasi davriga mansub hisobalanadi. Yozma manbalarda 1875-1876-yillarda Qo`qon va uning atrofida 40 ta madrasa, 300 ta masjid va 120 ga yaqin maktablar mavjudligi keltirib o`tilgan. Arxivlarda Qo`qon shahrida qurilgan 52 ta madrasaning barchasining nomi va qurilgan vaqtlari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. [1] Shunigdek, XIX asrga kelganda Qo`qon shahrida joylashgan har bir mahallaning o`z masjidi bo`lganligini,

* Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o`g`li - Qo`qon davlat pedagogika institutining 2-bosqich magistranti

Scanned with CamScanner

bu davrda Qo`qon shahrini o`z ko`zi bilan ko`rgan V.I.Masal'skiy ham yozib o`tgan. U bergan ma'lumotlarga qaraganda, shaharda jami 318 ta masjid bo`lgan, shulardan 18 tasi Jome masjidi darajasiga ko`tarilgandir.[1] Ushbu Masjidlardan saqlanib qolgan bitiklarni o`rganish jarayonida ularning kim tomonidan qurilganligi, kimlar qurilish uchun homiylik qilganligi, qurilgan vaqtlari haqidagi ma'lumotlar ham qayta tiklangan. Turli bitiklar kufiy, nasta'liq, suls, nasx va xusnihat turlarining ko`plab shaklarini tahlil qilib, o`rganish imkonini berdi. Bugungi kunga kelganda obidalarda yozilgan bitiklarni o`rganish uchun maktab vazifasini Xudoyorxon o`rdasi, Dahmayi shohon, Madrasai Mir obidalarida saqlanib qolgan tarixiy bitiklar bajarib bermoqda.

Ko`plab tarixiy me'moriy yodgorliklar urush, ob-havo va yer qimirlashlari – zilzilalar natijasida vayronaga aylanadi, yoki yo`q bo`lib ketadi. Jumladan, 1815-yilda Qo`qon shahrida yuz bergan zilzila oqibatida juda ko`plab odamlar uylar tagida qolib halok bo`ladilar [2].

Norbo`tabiy madrasasi Qo`qon hukmdori Norbo`tabiy ibn Abdurahmonbiy ibn Abdulkarimbiy farmoni bilan bunyod etilgan. "Anjum at-tavorix" asarida madrasa Norbo`tabiy tomonidan quridirilgan bo`lib, unga vaqflar tayinlanganligi ham e'tirof etib o`tilgan [1]. Ammo madrasaning 1798-yilda qurilganligi va ayni paytda xuddi shu yili Norbo`tabiy vafot etganligini hisobga olsak, madrasa uning o`g`li davrida ya'ni Olimxon davrida qurib bitkazilganligi bilib olishimiz mumkin. Madrasa bitiklarida yozilishicha ushbu madrasa 1799-yilda buxorolik me'mor Muhammad Solih ibn Muhammad Sharif tomonidan qurib bitkazilganligi ko`rib o`tishimiz mumkin. Madrasa bir qavatli bo`lib, uning hovlisi kvadrat shklida bo`lib hajmi 38*38 metrni tashkil etadi. Hovli atrofida esa darsxonalar va talabalar yashaydigan hujralar joylashgan[§], ularning soni 40 tani tashkil qiladi. Madrasaning ikki tomondagi peshtoqiga Qur'oni Karimning Tavba surasining 122-surasi bitilgan. Norbo`tabiy madrasasi shaharning Chorsu qismida joylashgan bo`lib, u 2010 yilda Davlat dasturi bilan ta'mirlangan.

[§] Bobobekov H. Qo`qon tarixi. Toshkent. Fan, 1996. 219-b.

Scanned with CamScanner

Qo`qon shahrida joylashgan yana bir tarixiy obidalar biri – Dahmai Shohondir. U shaharning katta qabriston qismida joylashgan bo`lib, unga Qo`qon xonlaridan Norbo`tabiy va uning avlodlari dafn qilingan. Dahmayi Shohon obidasi Nodirabegimning farmoniga binoan XIX asrning birinchi yarmida qurilgan. Dahma yonida o`sha davrda gulzor va mevazor bog` ham yaratilgan bo`lib, “Chalpak” madrasasi ham shu yerda qurilgan. [1] Dahmai Shohon 1971-yilda to`la ta’mirlangan. Dahmai Shohonning o`ng toqasiga Sultonxo to`ra Adoning Umarxon vafotiga bag`ishlab yozgan 17 baytdan iborat she’ridan 10 misralik qismi tanlab olinib, nasta’liq xatida o`yib yozilgan. Dahma va qabrtoshlarga bitilgan asosiy bitiklar nasta’liq va suls xatida yozilgan hisoblanadi. Ushbu obidaga ham Qur’oni Karimdan “Ixlos” surasi va “Isro” surasidan oyatlar o`yib yozilgan. Qo`qonlik tarixchi mutaxasis Yaxyoxon Dadaboyevning bergan ma’lumotlariga ko`ra, Xudoyorxon zamonida Qadamjoy mozoridagi – Dahmai Oliyda joylashgan Shohruhbiy, Abdurahmonbiy, Xojibiy, Murodxon, Sarimsoqxon, Mallaxon, Shohmurodxon, Sayyid Muhammad Sultonlarning[1] xoklari Dahmayi Shohonga ko`chirilgan, lekin ularning qaysi qismga va qay holatda joylashtirilganligi noma’lumlugicha qolmoqda.

Ushbu dahmaning shimoli-g`arbiy tarafida joylashgan Modarixon (xonning onasi) dahmasiga esa Norbo`tabiyning xotini Mingoyim (Umarxonning onasi Faxrunniso oyim) dan boshlab, xon xonadoniga mansub ba’zi ayollar ham dafn etilgan. Modarixon dahmasi peshtoqining o`ng tomonida bir sirkor koshin plitasiga usta “1241/1825 yil” deb yozuv qildirgan[3]. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ushbu obida hijriy 1241-yil, milodiy 1825-yilda qurilganligi bilib olish mumkin. Bu davrda Qo`qon xonligi taxtida Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronlik qilayotgan edi. Boshqa manbalarda esa ushbu obida mashhur me’mor-ustalardan Usta Muhammadqo`zi hamda Muhammadiso Najjorlar[1] rahbarligida yakuniga yetganligi haqida ma’lumtlar uchraydi. Ushbu yodgorliklar joylashgan hudud yaqinida Komila, Maknuna, Nodira ismlari bilan ijod qilib, Qo`qon adabiy muhiti yaratsishda faol qatnashgan Mohlaroyimga xotirasiga bag`ishlab qurilgan yodgorlik ham mavjud. Ushbu yodgorlik 1967-yilda yaratilgan.

Scanned with CamScanner

Qo`qon tarixiy yodgorliklari ichida o`ziga xos jihati bilan ajralib turadigan yana bir tarixiy obida bu Sohibzoda Hazrat majmuasi hisoblanadi. Ushbu madrasa Qo`qon xonlarining piri, yirik ulamo bo`lgan Miyon Fazl Ahad Sohibzodai Kalon mablag`iga 1862-1868-yillar mobaynida bosqichma-bosqich bunyod etilgan. Ushbu madrasa binosi mahalla hovlilari orasidagi bo`sh joyga qurilgan. BUgungi kunda madrasadan peshtoq gumbazli darvozaxona, masjid, darsxona, 24 hujra va minora saqlanib qolgan.[1] Obidadagi asosiy bezaklar nasta’liq yozuv uslubida yozilgan. Shunigdek, ushbu obidaga o`rnatilgan darvoza ham Qo`qon o`ymakorlik hunarmandchilik san’atining yorqin namunalaridan biri hisobalanadi. Darvozada uni tayyorlagan ustaning ismi va tayyorlangan muddati ham o`yib yozilgan bo`lib, undan darvozani usta duradgor Xo`ja Iskandar tomonidan hijriy 1278-yil yoki milodiy 1861-1862-yillarda tayyorlanganligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu madrasaning yana bir o`ziga xos qiymati shundaki, ushbu madrasada Qo`qon adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Aminxo`ja Muqimiy yashab ijod qilgan.

Qo`qon shahrida joylashgan yana ko`p tarixiy obidalar shahar ko`rkiga ko`rk qo`shib turmoqda. Tarixiy obidalarning ko`pligi esa shaharning turizm qobiliyatini oshirishga va aholining tarixiy onginig shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda Qo`qon shahrida har ikki yilda o`tkazilishi rejalashtirilgan “Xalqaro hunarmandchilik festivali”ning tashkil etilganligi ham shahar tarixining yanada jonlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. O`zbekiston obidalaridagi bitiklar. Farg`ona. Toshkent. Uzbekistan today. 2016. B. 67.

2. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Ubaydullayev O`. Vatan tarixi. 2-kitob. Toshkent. Sharq. 2010. B. 76.

3. Bobobekov H. Qo`qon tarixi. Toshkent. Fan, 1996. B. 23.

Scanned with CamScanner

60. OLIY PEDAGOGIK TA'LIMDA INFORMATIKA FANLARIDA O'QUVCHILARNING BILIMINI NAZORAT QILISH ASOSLARI
Z.Yuldashev 274

61. O'RTA OSIYO VA JAHONNING BOSHQA HUDUDLARIDA CHIZMANING RIVOJLANISH TARIXI
M.Jo'rayeva* 279

62. KO'MIR ADSORBENTI G'OVAKLARINING TA'SIRINI O'RGANISH
N.K.Saidxo'jayev*, G'.M.Ochilov 283

2-SHO'BA
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING MUAMMOLARI

63. FARG'ONA VODIYSI IRRIGATSIYA TARIXIDAN
H.Qurbonov 286

64. MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOVNING JADIDCHILIK FAOLIYATI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR
A.O'rinboyev* 290

65. HO'QANDI LATIF OBIDALARIGA BIR NAZAR
M.Qodirov* 294

66. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING HAMKORLIK ALOQALARI MUSTAHKAMLANISHIDA O'ZBEKISTONNING ROLI
H.Mamasiddiqova 298

67. XVIII-XIX ASRLARDA FARG'ONA VODIYSIDA VAQF YERLARIDAN FOYDALANISHNING AYRIM YO'NALISHLARI
O.Xolmatov 302

68. ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ДАВРИ МАКТАБЛАРИДА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР
З.Эргашева 305

69. ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА АРАВАСОЗЛИК ҲУНАРИНИНГ РАВНАҚ ТОПИШИ
С.Абдугаппор* 309

70. SITORAI MOXI XOSA MUZEYIDAGI EKSPOZITSIYALAR
N.Hasanova 312

71. МУҲАММАД ФОЗИЛБЕК ОТАБЕК ЎҒЛИНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ-ИЖОДИЙ МЕРОСИ
И.Икромов 315

72. ЎРТА ОСИЁДА МИЛЛИЙ-ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАНИШ ЎТКАЗИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ
С.Муродиллаев 323

73. TEREK DARYOSI BO'YIDAGI JANG
M.Nabiyev* 329

74. СОБИҚ СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ МИЛЛИЙ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ОҚИБАТЛАРИ
О.Бозоров*, С.Муродиллаев* 334

75. O'ZBEKISTON SSRNING MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISH TARIXI VA UNING XUSUSIYATLARI
S.Murodillayev* 341

76. "G'AROYIBI SIPOH" ASARIDA UMARXON DAVRI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNING QO'QON TARIXIGA OID BOSHQA ASARLAR BILAN QIYOSIY GERMENEVTIK TAHLILI
J.Sangirov 347

77. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДАГИ ЖАРАЁНЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ
З.Эркабоева * 359

78. YOSHLAR TARBIYASIDA MUZEYLARNING O'RNI
M.Xusanova, M.Mirbaratova, Q.Baxridinov* 362

79. МУЗЕЙЛАР ТАРИХИМИЗ КУЗГУСИ СИФАТИДА
Қ.Бахриддинов*, Н.Комилова*, З.Ахмедова 366

80. ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ТАРАҚҚИЁТИДА МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ МАРКАЗЛАРНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ДАСТЛАБКИ ФАОЛИЯТ ЙЎНАЛИШЛАРИ
М.Шерматова 371

81. ЎТОВДА ЯШАШНИ АФЗАЛ БИЛГАН МАЛИКА
Р.Абдуллаев 374

82. YANGI O'ZBEKISTON - YOSHLAR NIGOHIDA
X.To'ychiyev*
S.Xaydarov* 382

83. XX АСР БОШЛАРИДА МАҲАЛЛИЙ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИГА ДОИР ("САДОИ ФАРҒОНА" ГАЗЕТАСИ МИСОЛИДА)
С.С. Хамракулов*,С.Эгамбердиева* 385

84. XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА МЕСХЕТИ ТУРК ХАЛҚИНИНГ МИЛЛИЙ ҲАРАКАТЛАРИ
О.Бозоров*, Р.Курбонов* 391

85. МУСТАҚИЛ АРАФАСИДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИДАГИ ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ
Р.Курбонов* 396

Scanned with CamScanner